

MECHANISMS FOR PREVENTING CORRUPTION-RELATED CRIMES IN TAX AUTHORITIES: ANALYSIS OF NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE

Ikromov Asrorjon Akhrorjon ugli

Master's student of Tashkent State Law University

e-mail: asrorbekikromov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq xizmati organlari faoliyatida korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etiladi. Muallif soliq ma'murchiligida korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirishda milliy qonunchilikdagi so'nggi islohotlar, xususan, sohani raqamlashtirish va "anti-korrupsion komplayens" tizimining samaradorligini tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada Singapur, Janubiy Koreya va Estoniya kabi davlatlarning soliq tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvaffaqiyatli tajribalari qiyosiy o'rganilib, ularning ijobiy jihatlarni O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari soliq xizmati xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va tizimda shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: soliq xizmati, korrupsiya, profilaktika, raqamlashtirish, xalqaro tajriba, komplayens-nazorat, soliq ma'murchiligi, tahlila-tahlil, shaffoflik.

Annotation. This article examines the theoretical and practical aspects of preventing corruption-related crimes in the activities of tax service authorities. The author analyzes recent reforms in national legislation aimed at minimizing corruption risks in tax administration, in particular the digitalization of the sector and the effectiveness of the "anti - corruption compliance" system. Additionally, the article comparatively studies the successful experiences of countries such as Singapore, South Korea, and Estonia in combating corruption within their tax systems, and puts forward scientific and practical proposals for applying their positive aspects to the practice of Uzbekistan. The results of the research are aimed at enhancing the legal culture of tax service employees and ensuring transparency within the system.

Keywords: tax service, corruption, prevention, digitalization, international experience, compliance control, tax administration, risk analysis, transparency.

Kirish. Zamonaviy dunyoda davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va byudjet barqarorligini saqlash bevosita soliq tizimining samarali ishlashiga bog'liq. Soliqlar - bu davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarishi uchun asosiy resurs manbaidir. Biroq, ushbu tizimda korrupsiyaga oid jinoyatlarning mavjudligi nafaqat iqtisodiy yo'qotishlarga, balki jamiyatda ijtimoiy adolatsizlik hissi shakllanishiga va tadbirkorlik muhitining yomonlashishiga olib keladi.

Soliq xizmati organlaridagi korrupsiya - bu shunchaki poraxo'rlik holati emas, balki davlatning qon tomiri bo'lgan moliya tizimiga va uning iqtisodiy suverenitetiga qaratilgan jiddiy tahdiddir. Bu illat oqibatida byudjetga tushishi lozim bo'lgan ulkan mablag'lar "yashirin iqtisodiyot" subyektlari ixtiyorida qolib ketmoqda, xorijiy va mahalliy investorlarning ishonchiga putur yetadi hamda erkin raqobat tamoyillari buziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "*Soliqchi - tadbirkorga ko'makchi*" tamoyili joriy etilishining tub mohiyati ham aynan shunda - soliq xodimi va biznes vakili o'rtasidagi munosabatlarni jazolovchi xarakterdan hamkorlik darajasiga olib chiqish hamda korrupsion omillarni tag-tomiri bilan yo'q qilishdir.¹

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Soliqchi - tadbirkorga ko'makchi" tamoyili doirasidagi islohotlar konsepsiyasi bo'yicha ma'ruza va nutqlari.



Kriminologik va ijtimoiy nuqtai nazardan yondashganda, soliq ma'murchiligidagi adolatsizlik zanjirli reaksiyani yuzaga keltiradi. Shaffoflikning yo'qligi va byurokratik to'siqlar tadbirkorlarni qonuniy faoliyatdan chekinib, "soliqdan qochish" sxemalarini izlashga majbur qiladi. Byudjet tushumlarining kamayishi esa, o'z navbatida, davlatning muhim ijtimoiy loyihalari – ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini keskin cheklaydi. Natijada, jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va norozilik kayfiyati kuchayadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki o'n yilliklarda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi asosan reaktiv xarakterga ega edi, ya'ni e'tibor jinoyat sodir etilgandan keyingi jazolash choralariga qaratilgan edi. Biroq, zamonaviy huquqshunoslik fani isbotlaganidek, korrupsiyani jilovlashda jazo muqarrarligidan ko'ra, jinoyat sodir etish imkoniyatini beruvchi "bo'shliqlar"ni yo'qotish samaraliroq hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda soliq organlarini korrupsiyadan xoli qilishning yangi bosqichi - profilaktikaning institutsional mexanizmlarini yaratish bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda jahon hamjamiyati korrupsiyani davlatlar barqaror rivojlanishiga, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy yuksalishiga to'sqinlik qilayotgan eng xavfli tizimli illat sifatida e'tirof etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"². Ushbu konseptual yondashuv, ayniqsa, davlat byudjetining shakllanishiga mas'ul bo'lgan soliq xizmati organlari faoliyati uchun g'oyatda hayotiydir. Zero, soliq sohasidagi korrupsiyaviy holatlar nafaqat iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'ladi, balki xalqning davlat boshqaruv institutlariga nisbatan ishonchini tubdan susaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning mutlaqo yangi bosqichi 2017 - yil 3 - yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419 - sonli Qonun mamlakatimizda ushbu illatga qarshi kurashishning mustahkam huquqiy poydevorini yaratdi.³ Mazkur fundamental hujjat davlat siyosatining strategik yo'nalishlarini belgilab berish bilan birga, aksilkorrupsion faoliyatni tartibga soluvchi asosiy mexanizmlarni shakllantirdi.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu Qonunning 3 - moddasida korrupsiya tushunchasiga mukammal huquqiy ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra mazkur illat - shaxsning o'z xizmat yoki mansab mavqeyidan shaxsan o'zi yoxud o'zga shaxslar manfaatlarini ko'zlab moddiy va nomoddiy naf olish maqsadida qonunga zid ravishda foydalanishi, shuningdek, bunday nafni noqonuniy ravishda taqdim etishidir⁴. Mazkur ta'rif soliq xizmati organlari xodimlarining faoliyatidagi korrupsion xavf-xatarlarni huquqiy jihatdan tavsiflashda markaziy o'rin tutadi.

Ushbu huquqiy asoslarning amaliy ijrosini ta'minlash va jamiyat hayotining barcha bo'g'inlarida korrupsion holatlarning oldini olish maqsadida davlat rahbari tomonidan bir qator strategik dasturlar tasdiqlandi. Jumladan, 2019 - yil 27 - maydagi PF – 5729 - sonli Farmon bilan "2019 - 2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi" hayotga tatbiq etilib, sohaga

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2017. - B. 482.

³ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-sonli.

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2017 y. 4 yanvar



mas'ul bo'lgan idoralararo komissiyaning vazifalari yangilandi. Islohotlarning izchil davomi sifatida 2020 - yil 30 - iyundagi PF – 6013 - sonli Farmonning qabul qilinishi esa korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini institutsional jihatdan takomillashtirishda yangi davrni boshlab berdi.

Dastlabki yillardagi deklarativ yondashuv va xorijiy tajribaning e'tiborsiz qoldirilishidan farqli o'laroq, amaldagi qonunchilik bazasi soliq organlarida inson omilini cheklash hamda shaffoflikni ta'minlashning samarali nazorat mexanizmlarini joriy etdi. Biroq, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida soliq ma'murchiligida korrupsiyani jilovlash shunchaki jazolash choralaridan - tizimli profilaktika, raqamlashtirish va "anti - korrupsion komplayens" bosqichiga o'tdi⁵. Aynan soliq xizmati organlarida korrupsion xavf - xatarlarni bartaraf etishning milliy va xorijiy mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish, bugungi kundagi strategik iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini belgilovchi dolzarb ilmiy vazifadir.

ASOSIY QISM. Soliq xizmati organlarida korrupsiyaning oldini olish mexanizmlarini tahlil qilishdan avval, ushbu sohadagi jinoyatchilikning o'ziga xos tabiatini tushunish lozim. Soliq tizimidagi korrupsiya - bu shunchaki mansabdor shaxsning pora olishi emas, balki davlat iqtisodiy mexanizmlarining samaradorligini pasaytiruvchi murakkab ijtimoiy - huquqiy hodisadir.

Soliq tizimidagi korrupsion munosabatlarning o'ziga xos kriminologik xususiyati shundaki, u ko'pincha "**ikki tomonlama manfaatdorlik**" (mutual interest) tamoyiliga tayanadi. Bu jarayonda tadbirkorlik sub'ekti soliq majburiyatlarini sun'iy ravishda kamaytirish yoki tekshiruv jarayonidagi huquqbuzarliklarni yashirishga intilsa, soliq organi xodimi o'zining xizmat vakolatlarini ushbu "ehtiyoj"ni qondirishga yo'naltiradi. Bunday "yashirin ittifoq"ning eng xavfli jihati uning o'ta yuqori **latentlik** darajasidir. Chunki har ikki tomon ham kelishuvdan iqtisodiy naf ko'radi, natijada jinoyat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beruvchi "jabrlanuvchi" tomonning o'zi mavjud bo'lmaydi. Bu esa korrupsiyaning ushbu turini aniqlash va isbotlashni murakkablashtiradi.

Soliq organlarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni tizimli tahlil qilish ularni bartaraf etishning strategik yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi:

Institutsional va ob'ektiv omillar: Bu guruhga birinchi navbatda soliq qonunchiligidagi normalarning turlicha talqin qilinishiga yo'l qo'yuvchi **huquqiy kolliziyalar** kiradi. Ma'muriy tartib-taomillarning o'ta murakkabligi va byurokratik to'siqlarning mavjudligi tadbirkorni masalasini "tezroq va osonroq" hal qilish uchun noqonuniy yo'llarni izlashga majbur qiladi. Shuningdek, qaror qabul qilish jarayonida **inson omilining** yuqoriligi sub'ektiv xatolarga va tamagirlik holatlariga keng yo'l ochadi⁶.

Psixologik va sub'ektiv omillar: Xodimlarning huquqiy ong darajasi va kasbiy etikaga sodiqligi bu yerda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moddiy ehtiyojlarning munosib darajada qondirilmaganligi yoki ijtimoiy himoyaning kuchsizligi xodimda "tashqi daromad" izlash motivatsiyasini shakllantiradi. Shu bilan birga, tizimda korrupsiyaga nisbatan "murosasiz muhit"ning mavjud emasligi va xizmat etikasining shunchaki rasmiylatchilikka aylanib qolganligi ham illatning ildiz otishiga sabab bo'ladi⁷.

Zamonaviy aksilkorrupsion strategiyalar doirasida jahon hamjamiyati e'tiborni jazolashdan ko'ra, "**Xavf-xatarlarni boshqarish**" modeliga qaratmoqda. Ushbu strategiya soliq ma'murchiligining barcha bosqichlarida korrupsion xavf-xatarlarni identifikatsiya qilish, ularni

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2017-y. 4-yanvar

⁶ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi tahlili: Korrupsion omillarni bartaraf etish masalalari // Adolat nashriyoti, 2025. – B. 145-150.

⁷ Rose-Ackerman S. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. // Cambridge University Press, 2023. – P. 112-118.



baholash va profilaktik choralar orqali minimallashtirishni ko'zda tutadi. Xususan, **“Compliance Control”** tizimi doirasida har bir xizmat vazifasining “korrupsion profili” yaratiladi va eng yuqori xavfga ega bo'lgan yo'nalishlar (masalan, soliq tekshiruvlari, qarzdorlikni undirish) ustidan masofaviy va doimiy nazorat o'rnatiladi.

Milliy qonunchiligimizda, xususan **soliq ma'murchiligida** korrupsiyaga oid jinoyatlar doirasini belgilashda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003-y.) asosiy metodologik manba bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur xalqaro standartlarga tayangan holda, soliq tizimidagi korrupsiyani nafaqat poraxo'rlik, balki davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soluvchi murakkab kriminologik hodisa sifatida talqin etish lozim.

Bizning fikrimizcha, **soliq xizmati organlari faoliyati xususiyatlaridan** kelib chiqilsa, bu yondashuv biroz bahslidir. Zero, soliq tizimidagi korrupsiyaviy qilmishning determinat belgisi - bu inspektorning o'z xizmat vakolatidan foydalanib, soliq to'lovchiga noqonuniy imtiyoz berishi yoki soliq summasini kamaytirib ko'rsatishi evaziga moddiy manfaatdorlikka ega bo'lishidir. Soliq sohasidagi korrupsiyani jilovlashda jahonning yetakchi davlatlari tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun metodologik ahamiyatga ega:

Singapur modeli: Singapurning soliq tizimi (IRAS) “korrupsiyaga imkon bermaslik” tamoyiliga asoslangan. Bu yerda ikki yo'nalish ustuvor: yuqori ish haqi va qat'iy jazo. Singapurda soliq inspektorining maoshi xususiy sektordagi o'xshash lavozimlardan kam emas, bu esa xodimda poraga ehtiyojni kamaytiradi. Shu bilan birga, Korrupsion amaliyotlarni tergov qilish byurosi (CPIB) xodimlar ustidan shafqatsiz nazorat o'rnatgan.

Estoniya modeli (E-Tax): Estoniya dunyodagi eng raqamlashtirilgan soliq tizimiga ega. Soliq deklaratsiyalarining 99 % onlayn tarzda topshiriladi. Estoniyada soliq to'lovchi va inspektor o'rtasidagi yuzma-yuz uchrashuv deyarli nolga tushirilgan. Tizim shaffofligi shunchalik yuqoriki, har qanday noqonuniy o'zgarish elektron iz qoldiradi, bu esa korrupsiyani texnik jihatdan imkonsiz qilib qo'yadi.

Janubiy Koreya modeli (KNTIS): Koreyada “Tax Integrated Information System” (Soliq integratsiyalashgan axborot tizimi) barcha bank, bojxona va sud ma'lumotlari bilan bog'langan.⁸ Bu tizim xodimga ma'lumotlarni o'zgartirish yoki yashirish imkonini bermaydi. Shuningdek, “Ombudsman for Taxpayers” instituti soliq xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan tadbirkorlarning shikoyatlarini mustaqil ravishda ko'rib chiqadi.

Milliy huquqiy tizimimizda “korrupsiyaga oid jinoyatlar” tushunchasini aniq, qat'iy va izchil belgilash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Jinoyat qonunchiligida ushbu toifadagi jinoyatlarning ro'yxati va xususiyatlarining normativ jihatdan mustahkam ifodalanishi huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Ko'pincha qonun normalaridagi umumiy ta'riflar turli instansiya sudlari hamda tergov organlari tomonidan turlicha talqin qilinishiga olib keladi. Korrupsion xatti-harakatlarning huquqiy chegaralarini aniq belgilash - mansabdor shaxslarning, xususan, soliq tizimi xodimlarining qaysi harakatlari intizomiy xato, qaysilari esa jinoyat ekanligini farqlash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, tergov-sud jarayonlaridagi xatoliklarning oldini olib, qonuniylik va adolat prinsiplarini ta'minlashga xizmat qiladi. Nazariy qoidalar amaliyotda o'z tasdig'ini topsagina samarali ishlaydi. Ayni paytda, soliq xizmati organlarida joriy etilgan “anti - korrupsion komplayens” tizimi korrupsiyaga oid jinoyatlarning amaliy mazmunini ochib berishda asosiy profilaktik vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tizim faqatgina qoidalar to'plami bo'lib qolmasdan, balki xodimlarning xulq - atvori, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va korrupsion xavf - xatarlarni oldindan baholash mexanizmidir. Shuning uchun ham

⁸ Korea National Tax Integrated System (KNTIS). Modernization of Tax Administration and Transparency Mechanisms. – Seoul, 2022.



qonunchilikdagi nazariy - huquqiy asoslar bilan idoraviy komplayens mexanizmlarining uyg'unligini ta'minlash lozim. Komplayens tizimi qonundagi mavhumliklarni to'ldiruvchi, xodimlarga har kungi ish faoliyatida "qizil chiziqlar"ni ko'rsatib beruvchi ko'prik vazifasini o'tashi kerak. Soliq tizimidagi korrupsiyaning muhim omillaridan biri bu - qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlar (probellar) va korrupsiogen normalardir. Soliq kodeksi va boshqa qonunosti hujjatlarida soliq inspektorlariga keng diskretion vakolatlar beruvchi (masalan, qaror qabul qilishda bir nechta muqobil variantlarning mavjudligi, muddatlarning noaniqligi yoki soliq tekshiruvlarini o'tkazishdagi asoslarning mavhumligi) normalar tanqidiy qayta ko'rib chiqilishi zarur.⁹ Qonun hujjatlarining to'g'ridan - to'g'ri ishlashini kengaytirish soliq ma'murchiligidagi har qanday ikki xil talqinga chek qo'yish maqsadga muvofiqdir. Soliq xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashning eng zamonaviy va ta'sirchan usuli - bu inson omilini minimallashtirishdir. Soliq inspektorlarining qaror qabul qilish jarayonidagi subyektiv omillarni zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli platformalar orqali cheklash zarur. Xususan:

Soliq to'lovchi va inspektor o'rtasidagi yuzma - yuz muloqotni to'liq raqamlashtirilgan muloqotga o'tkazish;

Soliq tekshiruvlarini tayinlashda faqatgina sun'iy intellekt va "Katta ma'lumotlar" (Big Data) ga asoslangan xavfni tahlil qilish (Risk-analysis) tizimlaridan foydalanish;

Axborot tizimlarining uzluksiz auditini o'tkazish va kiritilayotgan ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash.

Soliq xizmati organlarida korrupsiyaning oldini olish - jinoyat qonunchiligida tushunchalarni aniqlashtirish, idoraviy komplayens tizimini takomillashtirish, huquqiy bo'shliqlarni yopish va raqamlashtirish jarayonlarini yagona zanjir sifatida birlashtirish orqaligina o'zining to'liq samaradorligini ko'rsatadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning muhim tashkiliy jihati - bu kadrlar rotatsiyasi, ya'ni xodimlarni bir lavozimda uzoq vaqt qolib ketishiga yo'l qo'ymaslikdir. Bir hududda yoki bir yo'nalishda uzoq muddat ishlash inspektor va mahalliy tadbirkorlar o'rtasida "shaxsiy aloqalar" shakllanishiga olib keladi, bu esa professional masofani (professional distance) yo'qotadi.

Zamonaviy raqamlashtirish bosqichida neyron tarmoqlari shunchaki texnik vosita emas, balki kriminologik tahlilchi vazifasini bajarmoqda. Bugungi kunda soliq ma'murchiligida qo'llanilayotgan sun'iy intellekt tizimlari "**behavioral patterns**" (**xulq - atvor modellari**) orqali korrupsiyani barvaqt aniqlash imkonini beradi.

Bu yerda gap shunchaki xatoni topishda emas, balki **anomaliyalarni aniqlash** haqida bormoqda. Masalan, agar inspektor kutilmaganda juda murakkab moliyaviy hisobotni "o'ta tez" va "hech qanday kamchiliksiz" qabul qilsa, tizim buni shubhali operatsiya sifatida belgilaydi. Bunday "erta ogohlantirish" (early warning) mexanizmi ichki xavfsizlik xizmatiga korrupsion bitim tuzilgan bo'lishi mumkinligi haqida signal beradi va inson omili orqali amalga oshiriladigan nazoratni bir necha barobar samaraliroq qiladi.

Xulosa. Soliq organlarida korrupsiyaning oldini olish - bu huquqiy, iqtisodiy va texnologik choralarning uzviy birligidir. Bizning tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, faqat jazo choralarni kuchaytirish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Eng muhimi - korrupsiya sodir etish imkoniyatini (opportunity) texnik jihatdan yo'qotish va xodimning ijtimoiy ongida "halollik - eng foydali yo'l" degan stereotipni shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -Toshkent: Adolat, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-sonli // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y.

⁹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -Toshkent: Adolat, 2020.



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”, 30.06.2020 yildagi PF-6013-sonli // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020 y., 06/20/6013/1102-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi to‘g‘risida”, 27.05.2019 yildagi PF-5729-sonli // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019 y., 06/19/5729/3200-son.
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi. 31.10.2003 yildagi Bosh Assambleyaning 58/4-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi 07.07.2008 yildagi O‘RQ-158-sonli Qonun bilan qo‘shilgan).
6. Mirziyoyev Sh.M. “Soliqchi - tadbirkorga ko‘makchi” tamoyili doirasidagi islohotlar konsepsiyasi bo‘yicha ma‘ruza va nutqlari.
7. Inland Revenue Authority of Singapore (IRAS). Annual Report: Anti-corruption strategies and compliance control in Singapore tax system. Singapore, 2022.
8. E-Tax Estonia. Digital transformation in tax administration and electronic declaration methodology. Official Report. - Tallinn, 2021.
9. Korea National Tax Integrated System (KNTIS). Modernization of Tax Administration and Transparency Mechanisms. – Seoul, 2022.
10. Corruption Practices Investigation Bureau (CPIB). Effective mechanisms of anti-corruption enforcement in public sectors. – Singapore, 2023

